

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI  
RIVOJLANTIRISH ASOSIY YO'NALISHLARI**

**Yuldasheva S.N.**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

*Menejment kafedrasida dotsenti, Buxoro sh., [saidayuldasheva@mail.ru](mailto:saidayuldasheva@mail.ru)*

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ  
ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

**Юлдашева С.Н.**

*Доцент кафедры Менеджмент Бухарского инженерно-технологического  
института, г.Бухара., [saidayuldasheva@mail.ru](mailto:saidayuldasheva@mail.ru)*

**MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN  
THE DIGITAL ECONOMY**

**Yuldasheva S.N.**

*Associate Professor of the Department of Management, Bukhara Engineering and  
Technological Institute, Bukhara., [saidayuldasheva@mail.ru](mailto:saidayuldasheva@mail.ru)*

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev “Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”. – deb ta’kidlagan edilar [3]. Mana hozir yillar davomida bu gaplar o‘z isbotini topmoqda.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot - katta hajmdagi ma’lumotlarni (BIG DATA) Internet tarmog‘i va mobil texnologiyalar orqali yig‘ish va raqamli texnologiyalar yordamida qayta ishlab, yangi qonuniyatlarni va bilimlarni yaratish asosida biznes modellarini samaradorligini oshirish va iste’molchilarni ehtiyojlarini sifatli qondirish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob’yektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi[11].

- **Raqamli iqtisodiyot belgilari:**

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

-yuqori darajada avtomatlashtirilganlik; - elektron hujjat almashinuvi; - buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi; - ma'lumotlar elektron bazalari; - CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi; - korporativ tarmoqlar

#### **Qulayliklari:**

- 1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).
- 2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
- 3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
- 4. Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
- 5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq

2025 yilga kelib dunyoning raqamli iqtisodiyoti 23 trillion AQSH dollariga yetadi. Uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi joriy 17,1% dan 24,3% ga oshadi. Dunyoda kommunal, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, transport, moliya va boshqa sohalarda raqamli transformatsiyani rag'batlantirish uchun 100 milliardlik ulanishlar (sensor datchiklar) bo'ladi[12]. Bulut texnologiyasidan foydalanadigan korxonalar soni 85%, sun'iy intellektdan – 86%, raqamli katta ma'lumotlardan – 80% ni tashkil qiladi.

2023 yil 11 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi farmonida quyidagilar qayd qilindi: “Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-NUB”ga aylantirish, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish, IT-park rezidentlari sonini 10 barobar oshirish, ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,2 foizga yetkazish va ularda yaratilgan ish o'rinlari sonini 100 mingtaga yetkazish, “Raqamli hukumat” dasturi doirasida 300 ta ustuvor loyihalarni ishga tushirish.”[2]

O'zbekistonda 2030 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 5,6%gacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Iqtisodiyotning real sektorida sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi]:

- sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish[13];
- korxonada ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;
- zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish[9];
- innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

- ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish[16];
- savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish[15];
- boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;
- 2025 yilda korxonalar resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ulushini 90 foizga yetkazish;

Masalan : «Deluxe Fabric» mas'uliyati cheklangan jamiyatida ham raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilayapti:

- Dfabric.uz korxonalar sayti yaratilgan
- Endilikda korxonalar xom ashyoni sotib olish ta'minotchilarni izlash ishlarini ular bilan shartnomalar tuzishni internet orqali yo'lga qo'yishgan.
- Korxonalar ichida bulutli texnologiyalar (Google disk) asosida bo'limlararo buyurtmani qabul qilish, buyurtma kalkulyatsiyasini tuzish, xarajatlarni hisoblash, shu asosda bo'limlarda vazifani yuklash bular STATA dasturlari orqali amalga oshirilyapti.
- Mahsulotlar sotuvi mijozlar bilan ishlash CRM dasturi bo'yicha olib borilyapti.
- Korxonada ishlab chiqarish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish: aynan jarayon operatsiyalarida ularni bajaruvchi jihozlarda buyurtma qanday holatda turganligi yoki aynan qaysi jihozning qaysi qismida uzilishlar bo'layotganligini dasturlashtirish borasida izlanish olib borilyapti. Bu esa Buyumlar internetini yaratishga olib keladi va masofadan ma'lumot to'plash amalga oshiriladi[14].
- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar va ish sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish choralari korxonada ko'rilishi kerak.
- Shu yil oxiriga qadar respublikada elektron davlat xizmatlarini 60 taga ko'paytirib, ularni 300 taga, masofaviy xizmatlar ulushini esa kamida 60 foizga yetkazish korxonalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.
- 2021 yili banklararo valyuta bozori "onlayn" platformaga o'tkazilishi korxonalar valyutani bevosita bankning o'zidan sotib olish uchun imkoniyati yaratildi. Natijada korxonalar tadbirkorlari valyutani hozirgidek 4 kunda emas, yarim soatda sotib olishi mumkin bo'ldi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-6079-son . 2020 yil 5 oktyabr.
2. «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-158-son . 2023 yil 11 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori PQ-4699-son 2020 yil 28 aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori PQ-4996-son 2021 yil 17 fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
6. Yuldasheva S.N. Ishlab chiqarish menejmenti. Darslik:- Buxoro. “Bukhara Brilliant Cargo”, 2024. – 248 b.
7. Фатхутдинов Р.А. Производственный менеджмент. Учебник. СПб. Питер, 2008. – 496 с.
8. Юлдашева С. Н., Джураев А. У. ФИНАНСОВЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ-ОСНОВНОЙ РЫЧАГ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. – 2019. – С. 133-136.
9. Юлдашева С. Н. СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЯ-ОСНОВА РАЗВИТИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАРОДА //Интернаука. – 2019. – №. 9-1. – С. 86-87.
10. Юлдашева С. Н. РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАН И РЕФОРМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА УЛУЧШЕНИЕ ЕЁ СТРУКТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 337.
11. Юлдашева С. Н., Артикова А. Д. ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ПЛАНЫ ПО РАЗВИТИЮ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ УЗБЕКИСТАНА //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 344-347.
12. Юлдашева С. Н. ОСНОВНЫЕ ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОКРАЩЕНИЯ УРОВНЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. – 2021. – С. 166-169.
13. Юлдашева С. Н. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ //Ученый XXI века. – 2017. – С. 107.

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

14. Юлдашева С. Н. ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ //УЧЕНЬИЙ ХХІ ВЕК. – С. 105.

15. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – Т. 4238. – С. 1922-1926.

16. Юлдашева С. Н. БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ.

17. Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. – 2019. – №. 44. – С. 22-25.

18. Yuldasheva, S. "The Main Directions of the Organization of Production Processes at Industrial Enterprises in the Digital Economy." Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 2.4 (2021): 189-194.